

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR (ABDULLA ORIPOV IJODI MISOLIDA)

Isayeva Rayxona Xushnudbek qizi,

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal’a fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: isayevarayhona07@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18931912>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining yirik vakili Abdulla Oripov ijodida onomastik birliklarning qo‘llanishi va ularning badiiy-estetik hamda g‘oyaviy vazifalari tahlil qilinadi. Shoir she’riyatida uchraydigan antroponimlar, toponimlar, etnonimlar va teonimlar milliy ongni shakllantirish, tarixiy xotiraga yuzlanish hamda istiqlol g‘oyalari badiiy ifodalashda muhim omil sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga onomastik birliklarning poetik matndagi semantik yuklamasi va ramziy mohiyati yoritiladi.

Kalit so‘z: Onomastika, mustaqillik davri she’riyati, Abdulla Oripov, antroponim, toponim, etnonim, semantika, milliy ong.

Аннотация. В данной статье анализируется использование ономастических единиц в творчестве Абдуллы Орипова, видного представителя узбекской поэзии периода независимости, и их художественные, эстетические и идеологические функции. Антропонимы, топонимы, этнонимы и теонимы, встречающиеся в поэзии поэта, интерпретируются как важный фактор формирования национального самосознания, обращаясь к исторической памяти и художественному выражению идей независимости. Одновременно подчеркивается смысловая нагрузка и символическая сущность ономастических единиц в поэтическом тексте.

Ключевые слова: ономастика, поэзия периода независимости, Абдулла Орипов, антропоним, топоним, этноним, семантика, национальное самосознание.

Abstract. This article analyzes the use of onomastic units in the work of Abdulla Oripov, a prominent representative of Uzbek poetry of the independence period, and their artistic, aesthetic and ideological functions. Anthroponyms, toponyms, ethnonyms and theonyms found in the poet's poetry are interpreted as an important factor in the formation of national consciousness, turning to historical memory and artistic expression of the ideas of independence. At the same time, the semantic load and symbolic essence of onomastic units in the poetic text are highlighted.

Keywords: Onomastics, poetry of the independence period, Abdulla Oripov, anthroponym, toponym, ethnonym, semantics, national consciousness.

Kirish. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyat milliy tafakkur va badiiy ongning yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan xarakterlanadi. Istiqlol tufayli adabiyot mafkuraviy cheklovlardan xolos bo‘lib, milliy tarix, madaniyat va ma’naviy merosga yangicha nigoh bilan imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu jarayonda she’riyatda til birliklarining, ayniqsa, atoqli otlarning faol qo‘llanishi kuzatiladi.

Atoqli otlar – onomastik birliklar badiiy matnda shunchaki nomlash vositasi bo‘lib qolmay, muayyan g‘oyaviy, estetik va ramziy yukni o‘zida mujassam etadi. Mustaqillik bu davr she’riyatida tarixiy shaxslar, muqaddas maskanlar, milliy makon va xalq nomlariga murojaat qilish kuchaydi. Bu holat esa, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va istiqlol g‘oyalari mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyotlar tahlili. XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo‘nalishni mashhur ingliz faylasufi va mantiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, ma‘lum makonda va zamonda atoqli otlar yordamida ifodalanuvchi ma‘no turdosh otlarga nisbatan aniqroq, ilmiyroq xarakterga egadir. Bu jihatdan atoqli otlar *bu, o‘sha, ana shu, ana bu* singari ko‘rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi [1].

O‘zbek toponimiyasiga oid dastlabki lisoniy monografik ish T.Nafasov[2] tomonidan bajarilgan. Mazkur ishda Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlarning nomlanish asoslari, etimologiyasi, ularning struktural-grammatik tuzilishi va yasalishi masalalari keng va atroflicha tadqiq etilgan edi. Olim keyinchalik faqat Qashqadaryo viloyati toponimlarini o‘rganish bilan kifoyalaniq qolmay, janubiy O‘zbekiston toponimlarining etnolingvistik tahlilini amalga oshirdi [3], O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘atini nashr ettirdi[4]

O‘zbekiston hududidagi toponimlarining tarixiy-ilmiy tahlilida taniqli geograf olim S.Qorayev, Xorazm vohasi toponimlarining ilmiy-lingvistik tahlilida prof. Z.Do‘simovlarning xizmatlari katta.

Y.Xo‘jamberdiev[5] Surxondaryo viloyati, S.Nayimov[6] esa Buxoro viloyati toponimlarini o‘rganish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirdilar. N.Oxunovning nomzodlik ishi esa Qo‘qon gruppasi tumanlarining toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi[7]

Tadqiqot metodologiyasi. She‘riyatda onomastik birliklar (atoqli otlar, toponimlar, antroponimlar va boshqa nomlar) badiiy tasvirning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Ular she‘riy matnga aniq makon va zamon ruhini olib kiradi, obrazlarni individuallashtiradi hamda tasvirning hayotiyiligini kuchaytiradi. Atoqli otlar orqali shoir voqelikni umumiy emas, balki konkret shaklda namoyon etadi, natijada badiiy ifoda yanada ta‘sirchan va ishonchli tus oladi.

Toponimlar she‘riyatda yurt manzarasi, tarixiy xotira va milliy ruhni ifodalashga xizmat qiladi. Muayyan hudud nomining qo‘llanishi o‘quvchi tasavvurida aniq geografik makonni gavdalandiradi va matnning emotsional-estetik ta‘sirini oshiradi. Antroponimlar esa qahramon xarakterini ochishda, tarixiy yoki afsonaviy shaxslar timsoli orqali muayyan g‘oya va qarashlarni ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Oripov she‘riyatida onomastik birliklar (atoqli otlar, toponimlar, antroponimlar, tarixiy va diniy nomlar) muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shoir nomlardan shunchaki atash vositasi sifatida emas, balki milliy xotira, tarixiy ong va ma‘naviy qadriyatlarni ifodalovchi kuchli poetik unsur sifatida foydalanadi.

Shoir istiqloq g‘oyasini ifodalashda tilning imkoniyatlaridan xususan, onomastik birliklardan samarali foydalangan. Misol tariqasida “Saylanma” she‘riy to‘plamidan joy olgan “Alisher va talaba” she‘rini ko‘rishimiz mumkin:

Saray yo‘liga chiqdi savlat bilan,
Alisher arkonu davlati bilan.

Hirof fozosida yangradi takbir,
Shahar aylanmoqda vaziri kabir.

Bu misralarda qoʻllangan “Alisher” birligi antroponom sifatida tarixiy shaxs — Alisher Navoiyga ishora qiladi. Bu yerda ismning familiyasiz qoʻllanishi alohida stilistik ahamiyatga ega.

Chunki Navoiy milliy ongda yagona va betakror shaxs sifatida mustahkam iz qoldirgan boʻlib, “Alisher” nomining oʻzi referensial jihatdan yetarlidir. Bundan tashqari bu butun bir maʼnaviy-madaniy muhitni ifodalagan va antroponom oddiy nominativ birlik emas, balki milliy davlatchilik, maʼnaviy qudrat ramziga aylangan poetik markazidir.

“Hirof” birligi esa sheʼrdagi oykonim (shahar nomi) sifatida qoʻllangan. Tarixiy jihatdan Hirof Temuriylar davrida siyosiy va madaniy markaz boʻlgan. Shu sababli mazkur toponim oddiy geografik nom emas, balki yuksak sivilizatsion makonni anglatadi. “Hirof fazosi” birikmasida toponim poetik transformatsiyaga uchragan. Makon “fazo” soʻzi orqali kengaytirilgan. Natijada “Hirof” sheʼrda real geografik nuqtadan koʻra, maʼnaviy nuqta sifatida namoyon boʻlgan.

“Yo Muhammad” sheʼrida ham onomastik birliklardan mohirona foydalanilgan.

Siz bashar farzandi, Abdulloh oʻgʻli,
Arab sahrosidek otashin, choʻgʻli,
Paygʻambar boʻldingiz, muzaffar tugʻli,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Mazkur parchada antroponomlardan keng qoʻllanilgan hamda etnotoponimik birlikka ham misol koʻrishimiz mumkin.

Abdulloh — arabchadan (Allohning bandasi) olingan antroponomdir. Paygʻambarni ulugʻlab, tanishtirib Abdulloh oʻgʻli sifatida kelgan. Bundan tashqari Muhammad yaʼni paygʻambar nomi qoʻllangan. Kelib chiqishi arabcha hammada feʼlidan — “koʻp hamd aytilgan”, “maqtovga sazovor”. Islom madaniyatida markaziy teonimik-antropofom nom. Semantik jihatdan qadriyat va eʼtiqod bilan yuklangan.

Ahmad — Muhammad paygʻambarning boshqa ismi. Kelib chiqishi arabcha “afʼal” vaznida — “eng koʻp maqtalgan”. Onomastik xususiyati: Muhammad nomining sinonimlik-variant shakli; Qurʼonda ham uchraydi. Bu hodisa antroponomik dubletlik deyiladi. “Arab sahrosi” deb kelgan jumla esa toponim (geografik nom). Bunda biz metaforik fonni koʻrishimiz mumkin. “Arab sahrosidek otashin” birikmasi orqali qatʼiyat va jazirama sharoitga qiyos qilingan. Umumiy jihatdan olganda Muhammad, Ahmad, Abdulloh oʻgʻli orqali aniq tarixiy shaxs koʻrsatilgan. Arab sahrosi esa makon yaʼni toponimga yaqqol misol sifatida qatnashgan. Bu birliklar matnda diniy-ruhiyatni kuchaytirish, tarixiy shaxslarni ulugʻlash va metaforik chuqur taʼsirchan makon yaratish vazifasini bajaradi.

Abdulla Oripov she'rlarida nafaqat diniy balki dunyoviy mavzularda ham nafislik va mohirlik sezilib turadi. Onomastikaga ham ulkan hissa qo'shgan shoirlardan biri hisoblanadi. Quyidagi "Qoraqalpog'im" nomli she'riy parchada ham onomastik birliklardan qo'llanilgan.

Men o'zbek, sen esa qoraqalpoqsan,
Turklar dunyosida sen ham urvoqsan,
Gar men tuproq bo'lsam, sen ham tuproqsan,
O'zbekka azaliy qarindosh, inim.

O'zbek, Qoraqalpoq, Turk etnonimlari (xalq, millat nomlari) mavjud. Parchada onomastik birliklar milliy qarindoshlik, tarixiy birlik va umumturkiy g'oyani poetik vosita sifatida ifodalash uchun xizmat qilgan. Yuqorida "O'zbek" va "Qoraqalpoq" zid emas, balki sintaktik parallellik orqali tenglashtirilgan. Ikki davlat o'rtasidagi tenglik va yaqinlikni ochib berish uchun xizmat qilgan. Abdulla Oripov ijodida onomastik birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Oripov mustaqillik davri o'zbek she'riyatining namoyandalaridan biri sanaladi. Istiqloq, vatan, tarix, milliy g'urur va ma'naviyat masalalari yetakchi o'rin tutadi. Uning she'rlarida mustaqillik davri ruhini, millatning kechagi va bugungi taqdirini teran badiiy mushohada asosida aks ettiradi.

Xulosa. Abdulla Oripov ijodida onomastik birliklar mustaqillik davri she'riyatining muhim badiiy va g'oyaviy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Antroponimlar orqali milliy tarixiy xotira tiklanadi, toponimlar orqali milliy makon obrazi yaratiladi, etnonim va teonimlar esa milliy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalaydi.

Shoir she'riyatida onomastik birliklar milliy ongni shakllantirish, istiqloq g'oyasini mustahkamlash va badiiy tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan Oripov ijodi mustaqillik davri she'riyatida onomastik taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Superanskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennoo. – M.: Nauka, 1973. – S. 58-59.
2. Nafasov T. Toponimi Kashkadarinskoy oblasti. Avtoref. dis... kand. filol. nauk.–Tashkent, 1968. -24 s.
3. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. – Toshkent, 1985. – 84 b;
4. Nafasov T. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan. – Toshkent: Fan, 1989. – 100 b
5. Xujamberdiyev Y. Istoriko-etimologicheskoye issledovaniye toponimii Surxandarinskoy oblasti. AKD. – Tashkent, 1973. – 25 s.
6. Nayimov S. Oykonimi Buxarskoy oblasti. AKD. – Tashkent, 1984. – 24 s.
7. Oxunov N. Toponimiya Kokandskoy gruppi rayonov. AKD. – Tashkent, 1978. – 23 s.